

Aksiyadorlik-tijorat Xalq banki tomonidan \_\_\_\_\_ yilda berilgan \_\_\_-sonli ishonchnomaga asosan faoliyat ko‘rsatuvchi «Xalq banki» \_\_\_\_\_, nomidan Boshqaruvchi \_\_\_\_\_ kelgusida «Bank» deb yuritiluvchi, bir tomonidan va o‘z nomidan yoki uning nomidan harakat qiluvchi fuqaro \_\_\_\_\_, kelgusida «Omonatchi» deb ataluvchi, ikkinchi tomonidan ushbu shartnomani quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar.

### **1. Shartnoma predmeti**

1.1. «Bank», «Omonatchi»dan pul mablag‘larini *jamg‘arma* omonat turiga \_\_\_\_\_ hisobvarag‘iga \_\_\_\_\_ milliy valyutada naqd yoki naqd pulsiz shaklda qabul qiladi.

1.2 Omonat turining nomi \_\_\_\_\_, topshirayotgan mablag‘ miqdori \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_ saqlash muddati bola 16 yoshga tulgunga kadar, foiz stavkasi (yillik) \_\_\_\_\_ foiz. \_\_\_\_\_ omonatga omonatchi tomonidan qo‘srimcha badal kirim qilishi ko‘zda tutilgan.

1.3. Omonat hisobvarag‘iga pul kiritilish sanasi \_\_\_\_\_ kuni hisoblanadi, omonatni qaytarish sanasi \_\_\_\_\_ kuni hisoblanadi. Saqlanish muddati tugaganidan keyin omonatchi ushbu hisobvaraqaqni yopmasa, ushbu hisobvaraqaqga foizlar hisoblanmaydi.

### **2. Tomonlarning huquq va majburiyatları**

2.1. Jamg‘arma omonat muddat tugagunga qadar yoxud bank omonati shartnomasida ko‘rsatilgan boshqa holatlari yuz bergunga qadar omonatchining talabi bilan unga qaytarilgan hollarda, omonat bo‘yicha foizlar 1.2.-bandida ko‘rsatilgan shartda emas, balki omonat turi shartiga ko‘ra foiz daromad to‘lanmaydi.

2.2. Omonat summasiga foizlar \_\_\_\_\_-omonatni to‘lash davrida qo‘shib to‘lab beriladi, talab qilib olinmagan foizlar omonat summasiga qo‘silib boriladi.

2.3. Omonat summasiga foizlar omonat mablag‘i bankka tushgan kunning ertasidan boshlab, to u omonatchiga qaytarilgan yoki boshqa asoslarga ko‘ra omonatchining hisobvarag‘idan o‘chirilgan kundan oldingi kungacha bo‘lgan davrga hisoblanadi. «Omonatchi»ning hisobvarag‘i xatlanganligi oqibatida bank ushbu hisobvaraqdagi pul mablag‘laridan foydalana olmagan davr uchun foizlar hisoblanmaydi yoki yozilmaydi.

2.4. «Omonatchi» yoki uning operatsiyasi sanksiya ta’sir doirasiga tushganda yoki tushish xavfi mavjud bo‘lganda, operatsiyani o‘rganish maqsadida qo‘srimcha ma‘lumotlarni so‘rash, operatsiya miqdorini chegaralash, operatsiyani cheklash (rad etish) yoki amalga oshirayotgan operatsiyalar «Omonatchi»ning anketasidagi profiliga nomuvofiq bo‘lgan hollarda xizmat ko‘rsatishni rad etish va «Omonatchi» bilan shartnomalarni bir tomonlama bekor qilish huquqlariga ega.

2.5. Amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan operatsiya oqibatida bankka nisbatan iqtisodiy sanksiyalar qo‘llanish xavfi mavjud bo‘lgan taqdirda bank «Omonatchi»ga hisobvaraq ochishni va operatsiyani amalga oshirishni rad etish huquqiga ega.

### **3. Tomonlarning javobgarligi**

3.1. Shartnoma majburiyatları bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda, tomonlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

### **4. Nizolarni hal qilish**

4.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo‘yicha yuzaga kelgan barcha bahsli holatlarni va kelishmovchiliklarni va nizolarni muzokara yo‘li bilan hamda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tegishli sud organlari orqali hal etiladi.

### **5. Fors major holatlari**

5.1. Taraflarning biri boshqa tarafning oldida ushbu shartnoma bo‘yicha olgan majburiyatlarini fors-major holatlarda, ya’ni taraflarning erki va istagidan tashqari vujudga kelgan hamda ularni oldindan ko‘ra bilish yoki bartaraf etishi mumkin bo‘lmagan holatlarda (pul kredit siyosatidagi dinominatsiya, yer qimirlash, suv toshqini, yong‘in va boshqa tabiiy ofatlar) bajarmaganliklari uchun javobgar bo‘lmaydilar. Majburiyatni to‘liq bajarishdan ozod qilinishi uchun fors-major holatlari asos bo‘ladi.

### **6. Boshqa shartlar**

6.1. Shartnomani imzolash orqali omonatchi bank qoidalari va tariflari bilan tanish ekanligini tasdiqlaydi, hamda ularga rioya qilish majburiyatini oladi.

6.2. Bank «Omonatchi» yoki uning vakillari topshirig‘iga binoan, bankning omonat hisobvarag‘ida turgan pul mablag‘lari bilan bank operatsiyalari bo‘yicha amalga oshirilgan xizmatlar uchun, taraflarning qo‘srimcha kelishuviga muvofiq bank Tarifiiga asosan vositachilik haqi undirish huquqiga ega.